



## LEGAL BASIS OF THE FIGHT AGAINST CORRUPTION

**Bukharova Aziza Ashirali kizi**

Student of the Faculty of Criminal Justice

at Tashkent State University of Law

E-mail: Buxarova71@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15260922>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 21<sup>st</sup> April 2025

Online: 22<sup>nd</sup> April 2025

### KEYWORDS

Corruption, causes and signs, countermeasures, control procedures, negative aspects, corruption, nepotism, lobbying.

### ABSTRACT

*The purpose of this article is to analyze corruption, its causes, consequences and signs, the impact of corruption on public administration and the social sphere. In addition, international and national legislative documents and the activities of international organizations in the fight against corruption, their mutual cooperation, and the state policy, adopted laws, and strategies in Uzbekistan on combating corruption are analyzed and studied. Proposals are made to improve the rule of law based on the experience of countries on issues of liability for corruption-related crimes.*

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI

**Buxorova Aziza Ashirali qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi

E-mail: Buxarova71@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15260922>

### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 21<sup>st</sup> April 2025

Online: 22<sup>nd</sup> April 2025

### KEYWORDS

Korrupsiya, oldinini oluvchi choralar, nazorat qilish tartibi, salbiy oqibatlari, nepotizm, lobbizm.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada korrupsiya, uning sabablari, oqibatlari hamda belgilari, korrupsiyaning davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy sohadagi ta'siri tahlil qilinadi. Shunidek xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari hamda xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi faoliyati, ularning o'zaro hamkorligi va O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash ishlari bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati, qabul qilingan normativ-hujjatlar, strategiyalar tahlil qilinib o'rganiladi. Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari yuzasidan davlatlar tajribasi asosida qonuniylikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar beriladi.*

### Kirish

Korrupsiya dunyo miqosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.



Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi xalqaro hamjamiyat tomonidan eng dolzarb global muammolardan biri sifatida qabul qilinmoqda. Shuningdek, korrupsiya mavzusi yangilik emas, lekin uning ko'lamiga bugungi kunda barcha sohalarda seziladi xususan o'tmish va hozirgi zamondagi inqirozga yuz tutgan davlatlar misolida buni kuzatish mumkin. Insoniyat tarixidan ma'lumki, korrupsiya jamiyatini yemiradigan, shaxsni axloqiy va huquqiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va har qanday davlat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatib uni inqirozga yetaklaydigan chegara bilmas illatdir.

Dastlab korrupsiya tushunchasini mohiyatini ochib beradigan bo'lsak, korrupsiya bu davlat organlari yoki mansabdor shaxslarining pora olish, pora berish yoki vositachilik qilish kabi noqonuniy yo'llar bilan boylik ortirishidir. Qonun yuzasidan olib qaralganda 2017-yil 3-yanvar kuni **“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”**gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi va mazkur qonuning 3-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga doir tushunchalarga ta'rif berilgan ya'ni korrupsiya-shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir [6].

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurash masalasiga alohida e'tibor qaratib, muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Shuningdek muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganidek korrupsiya nafaqat iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qiladi, balki jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va norozilikni keltirib chiqaradi.

Ta'kidlash joizki korrupsiya jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan illat hisoblanadi. Shuning uchun ham korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda yurtboshimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi olib borayotgan jadal isolotlar hamda chiqarilayotgan qaror va farmonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, quydagi qonunchilik hujjatlari orqali birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022 yilda **“Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi”** 81-sonli qarori muhim o'rin egallaydi unda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash mexanizmlari mavjud emasligi sohada amalga oshirilayotgan tadbirlarga yagona mezon asosida xolisona baho berish va ularning natijadorligini yanada oshirishga to'sqinlik qilib kelayotganligi shu sababdan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, baholash va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan [10].

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risidagi taklifi ushbu qaror doirasida qamrab olingan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021-yildagi **“Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 6257-son farmoni unda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi murosasiz kurashishning ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan tizimini joriy etish bo'yicha izchil choralar ko'rish, jumladan, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflikni ta'minlash hamda mansabdor shaxslarning aholi oldidagi



hisobdorligini yo'lga qo'yish orqali davlat boshqaruvida samarali va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish va korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilash kabi vazifalarni o'z ichiga olgan ekan[9]. Keyingi hujjat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020 yildagi **“O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”**4761-son qarori hisoblanib unda, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi faoliyatini samarali tashkil etish haqida so'z boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.11.2023-yildagi 200-sonli **“Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”** farmonida esa korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlarning natijadorligini oshirish, muhim ijtimoiy masalalarga oid ochiq ma'lumotlar ko'lamini yanada kengaytirish, ulardan to'siqlarsiz foydalanishni ta'minlash shuningdek, “O'zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish, korrupsiyaga oid xabarlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining “Call-markaz” faoliyatini takomillashtirish kabi maqsadlarni amalga oshirish belgilab qo'yilgan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining II-bob 5-moddasida “Har bir ishtirokchi davlat, o'z huquqiy tizimining asosiy tamoyillariga muvofiq, korrupsiyaga qarshi harakat qilish borasida, jamiyat ishtirokiga yordam beradigan hamda huquq-tartibot, ommaviy ishlar va ommaviy mol-mulkni kerakli darajada boshqarish, halollik va sodiqlik, oshkoralik va mas'uliyatlilik tamoyillarini aks ettiradigan samarali va muvofiqlashtirilgan siyosatni ishlab chiqadi va amalga oshiradi yoki olib borishi” keltirib o'tilgan. Qolaversa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 15-moddasida Har bir ishtirokchi davlat quyida ko'rsatilgan harakatlar ataylab sodir etilganda buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'radi [4].

Dastlab, ommaviy mansabdor shaxsga shaxsan yoki vositachilar orqali ushbu mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida, biron noqonuniy afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etishi, so'ngra biron mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron bir harakat yoki harakatsizlik maqsadida mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun biron noqonuniy afzallikni shaxsan ommaviy mansabdor shaxs tomonidan yoki vositachilar orqali talab qilib yoki qabul qilib olishi.

Ahamiyat qaratishimiz lozim bo'lgan jihat ushbu Konvensiyaning 19-moddasi bo'lib unda xizmat lavozimini suiiste'mol qilishi ya'ni “Har bir ishtirokchi davlat xizmat vakolatlaridan foydalanishni yoki xizmat lavozimini suiiste'mol qilishni, ya'ni ommaviy mansabdor shaxs o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida qonunga xilof ravishda shaxsan o'zi yoki boshqa yuridik yoxud jismoniy shaxs uchun biron noqonuniy afzalliklarni olish maqsadida



biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligini, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi". Shu o'rinda 1999-yilning 27-yanvarida **"Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi"** konvensiya, va 1999-yilning 4-noyabridagi **"Korrupsiya uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to'g'risidagi"** konvensiyalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Rivojlanayotgan davlatlar tajribasini ko'radigan bo'lsak bunga Yaponiya davlati misol bo'la oladi.

Xususan Yaponiya Jinoyat kodeksini 25-bobi **"Korrupsiya jinoyatlari"** deb nomlanib undagi 19<sup>1</sup>-moddasining dispozitsiya va sanksiya qismlarini ko'radigan bo'lsak, davlat xizmatchisi o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan pora olgan, so'ragan yoki olishni va'da qilgan bo'lsa besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazolanadi, agarda hodim iltimosiga ko'ra harakat qilishga rozi bo'lganda yetti yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazosi tayinlanishi, shuningdek davlat xizmatchisi etib tayinlanadigan shaxs so'roviga javoban harakatni amalga oshirishiga rozilik bilan o'z zimmasiga olinishi kerak bo'lgan majburiyat bilan bog'liq bo'lgan holda pora olishni so'rasa yoki va'da qilgan taqdirda, shaxs tayinlangan taqdirda besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [3].

Bundan tashqari, Yaponiya Jinoyat kodeksining 197<sup>2</sup>- moddasiga ko'ra porani uchinchi shaxsga topshirish "Davlat xizmatchisi so'roviga javoban biror harakatni amalga oshirishga rozi bo'lib, xodimning uchinchi shaxsga berish majburiyatini bajarish munosabati bilan pora olishga aloqador bo'lsa yoki bunday porani uchinchi shaxsga berishni so'rasa yoki va'da qilsa, besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi". Yaponiya Jinoyat kodeksining 197<sup>3</sup>- modda ko'p miqdorda pora qabul qilish, lavozimdan ketganidan keyin pora qabul qilish haqida ushbu moddaning uchinchi qismiga ko'ra "Davlat xizmatchisi lavozimidan bo'shagan shaxs o'z iltimosiga ko'ra qonunga xilof harakat qilganligi yoki o'z xizmat vazifalarini bajarishdan bosh tortganligi munosabati bilan pora olgan, so'ragan yoki olishni vada qilgan bo'lsa, o'z iltimosiga ko'ra binoan besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 290-moddasida pora olish, 291-moddasida esa pora berish haqida bo'lib aynan 290-modda pora olish mansabdor shaxs, chet ellik mansabdor shaxs yoki xalqaro jamoat tashkilotining mansabdor shaxsi tomonidan shaxsan yoki vositachi orqali pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa mol-mulk yoki noqonuniy mulkiy xizmatlar ko'rsatish, boshqa mulkiy huquqlar berish shu jumladan, mansabdor shaxsning ko'rsatmasi bo'yicha pora boshqa jismoniy va yuridik shaxsga mol-mulk manfaati uchun o'tkazilganda pora olish uning vakili bo'lgan shaxs bir million rublgacha jarima yoki mahkumning ikki yil davomida olingan ish haqi yoki boshqa daromadlari miqdorida jarima, yoki poraning o'n barvaridan ellik baravarigacha bo'lgan miqdorda jarima, uch yilgacha muayyan lavozimlarni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilib bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha muayyan lavozimni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilib, besh yilgacha majburiy mehnat yoxud uch yilgacha bo'lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [2].

Xalqaro qonunchilik hujjatlari hamda davlatlar tajribasi o'rganilgan holda **O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining** 210, 211, 212 moddalari muhim ahamiyat kasb etadi.



Xususan pora olish jinoyatini o'rganilganda ushbu kodeksning 210-moddasining dispozitsiya qismida "Pora olish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi sanksiya qismida esa bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan [1].

Pora berish ushbu kodeksining 211-modda, pora olish-berishda vositachilik qilish esa 212-moddalarda pora olish-berishda vositachilik qilish, ya'ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish - bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi keltirib o'tilgan bo'lib ushbu moddalar misolida Yaponiya, Rossiya singari davlatlarining qonunchilik hujjatlari bilan o'xshashliklarni ko'rishimiz mumkin (masalan sanksiya qismida ko'rsatilgan jazo choralari kabi).

Zero ma'rifatparvar shoir Abdulla Avloniy aytganlaridek, **"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir"** shunday ekan bizlarni ham huquqimiz ham majburiyatimiz borligini unutmasligimiz lozim hamda qonunlarni bilish emas, ularni qanday ishlashini tushunib yetishimiz kerak. Korrupsiya sodir etishini oldini olish qonunlar faqat yurdik tilda emas, balki odamlarning bilishi, tushunishi uchun huquqiy ongini oshirib odamlarning qonunga bo'lgan ishonchini oshirishi lozim hamda qonunlar ko'rinmas kuch bo'lib qolishi emas balki xalqimiz orasida ommalashuvini ta'minlash zarur hisoblanadi. Bunda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali, aholining huquqiy ongni oshirish bilan Korrupsiyani oldini olishimiz mumkin. Tadqiqotchilar fikricha jumladan, Nobel mukofoti laureanti Rigobera Mencha **"Kuchli kuzatuv institutlarisiz, jazosizlik korrupsiya tizimlari quriladigan poydevorga aylanadi. Jazosizlik barham topmasa, korrupsiyaga barham berish uchun qilingan barcha harakatlar besamar ketadi"**. Transparency International raisi Delia Ferreyra **"Odamlarning loqaydligi korrupsiyaning rivojlanishi uchun eng yaxshi zamindar [13. P. 5.]"**.

Amerikaning sobiq vitse-prezidenti Jo Bayden **"Korrupsiya-saraton kassaligi, fuqarolarning demokratiyaga bo'lgan ishonchini yeb qo'yadigan, yangillik va ijodkorlikni susaytiradigan saraton"**. Aflotun, Aristotel va Sitseronning asarlari ham o'z davrida korrupsiya mavjudligiga guvohlik beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Singapur bu davlatda tabiiy boyliklari deyarli mavjud emas. Xattoki chuchuk suv ham davlatda muammo hisoblanganligi sababli qo'shni davlatlardan eksport qilib Malaziyadan olib kelinadi. Mustaqillikka erishgach qoloq bir davlatni qisqa muddat ichida rivojlangan davlatlardan biriga aylantira olgan **Li Kuang Yuaning** "Singapur mo'jizasi" kitobida Singapurning rivojlanish tarixini tushuntirish uchun muhim asar hisoblanadi. Undagi **"Korrupsiya bizni yutib yuborishi mumkin bo'lgan eng katta tahdid edi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi qa'tiy kurash olib borishimiz kerak [15. B. 57.]"**.



Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun sizda yuqori maoshlar bo'lishi kerak. Siz davlat xizmatchilariga yuqori maoshlar to'lashingiz kerak, shunda ular korrupsiyaga qo'l urishdan tiyiladi degan fikrlarini bildirgan. Biz hech qanday e'tiborsizlikka yo'l qo'ymasligimiz kerak. **Li Kuan Yuaning** korrupsiyaga qarshi kurashdagi yondashuvi Singapurda korrupsiyaning keskin kamayishiga olib keldi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning tajribasi boshqa mamlakatlar uchun ham korrupsiyaga qarshi kurashda muhim saboq bo'lishi mumkin. Bizga ma'lumki tarixdan Chingizxon biror davlatga yurish qilishdan avval elchilar, savdogarlar orqali sovg'a-salomlar, qimmatli buyumlar bilan tinch yo'l orqali qon to'kishlarsiz Chingizxon hokimyatini tan olishi taklifini yurt hukmdorlariga bildirgan. Yurtimiz tarixida Chingizxon Xorazmga bostirib kirgan vaqt, shayx Najmiddin Kubro Urganchda edi. Chingizxon uning juda yaxshi, halol inson ekanligini allaqachon eshitgan bo'lsa ham Najmiddin Kubroga o'z oilasi bilan shaharni tark etishni taklif qilagani va "Kubroviya" tariqatining asoschisi hamda yuksak tarbiya sohibi Najmiddin Kubro esa bu taklifni rad etganligi misolida Chingizxon bildirgan taklifini korrupsiyaning tarixdagi ko'rinishi ya'ni pora berish sifatida baholashimiz mumkin. Rim Respublikasida saylovlarda nomzod bo'lishini istagan rimliklar xalqini sovg'a-salomlar orqali xalqdan o'z manfatlari yo'lida ko'proq ovoz berishga undashgan. Shu sababdan ham Rimda saylovlarda nomzod bo'lishini istagan rimliklarga yaxshi yo'ldan ozdirish uchun toga(kiyim)larini oqlash taqiqlangan edi. O'sha paytda "kandidatus" kim tozalangan degan ma'noni anglatgan ya'ni vijdonning tozaligini qabih ishlar qilmasligi va boshqa shu kabi illatlardan holi ekanligini bildirgan.

Neoptizm tarixni ko'radigan bo'lsak, uzoq o'tmishda Italiyada Rim papasi davrida paydo bo'lgan bo'lsa, yaqin o'tmishda yaqqol Ruminiyada Chaushesku diktatura rejimi misol bo'la oladi. Nikolay Chaushesku hukmronligi vaqtida o'z turmush o'rtog'i Yelena Chausheskuni 1972-yilda hukmron partiya bo'lgan Ruminiya Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo'mitasiga kiritdi va 1980-yilda uni bosh vazirning birinchi o'rinbosari lavozimiga tayinladi.

Shuningdek, Chausheskuning o'g'li Niku Ruminiyadagi graflik va Kommunistik Partiya Markaziy Qo'mitasi Siyosiy Ijroiya Qo'mitasi a'zoligiga nomzod etib tayinlandi. U ya'na Ruminiya Kommunistik talabalar uyushmalari ittifoqi rahbari va Ruminiya Kommunistik Yoshlar Ittifoqi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi mansablarida ishlagan. 1980-yillarning o'rtalariga kelib hatto Niku Chausheskuni otasining merosxo'ri, prezidentlikka nomzod sifatida ko'ra boshlashgan. O'sha vaqtlar Ruminiya rahbarining boshqa qarindoshlari bo'lgan 40 ga yaqin kishi davlat va partiyaning muhim lavozimlarida faoliyat yuritgan ekan [17]. Aytish mumkinki, nepotizm - korrupsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, siyosatda, ish, lavozimga erishishda, tadbirkorlik kabi boshqa sohalarida shaxslarning qobiliyati, bilimi, ma'lumotiga emas, balki urug'-aymog'chilik, oshna-og'aynichilikka yon bosish, qo'llab-quvvatlash, sharoit yaratib berishlik shaklda namoyon bo'ladi.

Sodda qilib aytganda inson o'z yaqinlarini ya'ni oila a'zolarini boshqa kishilarga nisbatan ustun ko'rishi, afzal bilishi deb tushunishimiz mumkin. Garchi bunda yaqinlari noloyiq bo'lsa hamki, ularga lavozim va ishlarni vijdonsizlarcha topshirishidir. Bizning nazlimizda, nepotizmni monarxiya shakliga ega davlatlar boshqaruvida ko'rish mumkin sababi monarxiyada hokimiyat irsiyalanadi ya'ni nasldan-naslga o'tib keladi, yillar davomida hukumatni boshqarib hukumdor o'z oila a'zolari va yaqinlariga mansab va imtiyozlar berganligi



oqibatida davlatning samardorligini pasayishi hamda mansabga nisbatan layoqatsizlik hirs oshishiga sabab bo'ladi.

Albatta bu kabi holatlar mavjud bo'lishi korrupsiyaning rivojlanishiga olib keladi va mamlakatning parokandaligi, boshboshdoqliklar kabi yomon oqibatlar sababchisi bo'lishi mumkin. Agar korrupsiyaga qarshi samarali choralar ko'rilmasa, qurt yegan mevaning chirib yo'q bo'lgani kabi, davlatning tizimi ham zaiflashib, oxir-oqibat inqirozga yuz tutishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda korrupsiyasiz tizim bu nafaqat rivojlanagan davlat, balki adolatli jamiyat ya'ni jamiyatda adolatning qaror topishiga sabab bo'ladi. Korrupsiya vaqt o'tishi bilan o'zgarib, yangi shakllarga kirib boraveradi. Bu o'zgarishlar jamiyatning rivojlanib borishi, qonunchiligidagi o'zgarishlar tashqi ta'sirning oqibatida o'zgarib boraver ekan. Korrupsiyaning an'anaviy, odatdagi shakillaridan pora olish, pora berish va vositachilik qilishdan tashqari yashirin shakllari ham mavjud.

Mamlakatimizda lobbizm asosan huquq, iqtisodiyot sohasidagi salbiy omillar bilan bog'liq salbiy ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Melburn universiteti professori **Sven E. Feldmann** lobbizm deganda "Ko'p sonli qonun chiqaruvchi shaxslarga kam sonli iqtisodiy qudratga ega bo'lgan shaxslar tomonidan tegishli ma'lumotlarni strategik usullar bilan yetkazish jarayoni deb bilishimiz mumkin [13. P. 6.]". Bundan tashqari, Maastrixt universiteti professori **Iskandar de Bryuker** fikricha, "Siyosiy ta'sirga intilishida iqtisodiy qudratga ega guruhlar siyosiy elita bilan bevosita bog'lanish yoki keng jamoatchilikka murojat qilish orqali bilvosita bosim yaratish tanlovlariga duch kelishadi va bu o'z navbatida lobbizm deb atalishini" o'z fikri bilan bayon etgan. Bizning nazlimizga ko'ra, lobbizm davlat yuqori elita vakillarining davlatning barqaror ishlashiga va davlat mexanizmini ishdan chiqishiga sabab bo'luvchi turli ko'rnishdagi tazyiqli harakatlar orqali bosim o'tkazishidir.

Muxtasar aytganda, Korrupsiya tarqqiyot kushandasi, hokimyatni inqirozga yetaklaydigan, mamlakatni tanazullga undaydigan, uning ishini ya'ni davlat mexanizimni ishdan chiqaradigan va davlatni ichidan yemiradigan salbiy illatdir. Bu illatga qarshi kurashda yurtimizda faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar kurashadi deb hisoblamalik lozim sababi zero shu yurt bizniki ekan uning rivojlanishiga har birimiz o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari bugunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan davlatdagi insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymaydilar.

Shuningdek, pora korrupsiya hokimyat va boshqaruv asoslarini yemiradigan uning axoli oldidagi obro'siga putur yetkazadigan, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan xavfli jinoiy hodisaning nisbatan ko'p tarqalgan va o'ziga xos xodisa hisoblanadi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy va siyosiy tizimlarni zaiflashtiradi, balki jamiyatning asosiy qadriyatlarini, adolatni va tenglikni ham poymol qiladi. Bu nafaqat davlatning iqtisodiy rivojlanishiga, balki aholi orasidagi ishonchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.



Korrupsiyaga qarshi kurashish, albatta, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi, ammo bu faqat ularning yuki bo'lmashligi kerak. Jamiyatning har bir a'zosi, har bir fuqaro korrupsiyaga qarshi kurashda o'z mas'uliyatini his qilishi lozim. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashda yuksak huquqiy madaniyat, adolatga bo'lgan hurmat va savodxonlik zarur, chunki bu narsalar jamiyatda korrupsiyaga o'rin qoldirmaslikka yordam beradi. Har bir fuqaro o'z huquq va burchlarini tushunib, korrupsiya masalasiga jiddiy qarashni boshlasa, korrupsiyaning oldini olish mumkin bo'ladi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi
2. Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksi  
[[https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/)]
3. Yaponiya Jinoyat Kodeksi  
[<https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3581/en>]
4. Birlashgan millatlar tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasi [[uz.wikiaro.ru/wiki/United Nations Convention ...](https://uz.wikiaro.ru/wiki/United_Nations_Convention...)]
5. "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiya (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida" 158 sonli qonun. 2008 yil 7 iyul.
6. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" 419 sonli qonun, 2017 yil 3 yanvar
7. "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 6013 sonli Prezident farmoni, 2023 yil 29 iyun.
8. "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 200 sonli Prezident farmoni 2023yil 27 noyabr.
9. Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida 6257 sonli Prezident farmoni. 2021 yil 6 iyul.
10. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida 81-sonli Prezident qarori. 2022 yil 12 yanvar.
11. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida 4761 sonli Prezident qarori. 2020 yil 6 iyun.
12. Rustamboyev M.H. Jinoyat huquqi darslik. -T: TDYI nashriyoti 2006 yil.
13. Bennesen, Morten & Feldmann, Sven. Lobbying and Legislative Organization: The Effect of the Vote of Confidence Procedure. Business and Politics. 4. 6-6. 10.1080/1369525022000015621. URL.
14. De Bruycker, Iskander & Beyers, Jan. (2018). Lobbying strategies and success: Inside and outside lobbying in European Union legislative politics. European Political Science Review.
15. Raxmatov M.A, Zaripov B.Z Istedodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir Li KuanYu hikmatlari.
16. Nikolo.Makiavelli. Hukmdor, Toshkent - 2018. 12-bet
17. [Nepotism Policies: What Employers Need to Know](#)